

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARI UCHUN DARS JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN USULLAR

Bozorboyeva Diyora

*Ajiniyoz nomidagi NDPI ning Boshlang'ich ta'lism fakulteti
Boshlang'ich ta'lism yo'nalishi 2-g kurs talabasi*

Annotatsiya: Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda o'qituvchilar juda ko'p metodlardan foydalaniladi. Bu inson har xil erka, tentak, o'zboshimcha, qo'rs, yuvosh, uyatchan, gapga tushunmaydigan, haddan tashqari aqlli bolalar bilan birga ishlashadi, ularning xulq-atvorini o'rganadi va hammasini hamjihatlikda tarbiyalaydi. Ularning o'qishda, oilada, do'stlar davrasida, katta-yu kichiklarning oldida o'zlarini qanday ushlash kerakligini, odob bilan gapirish kerakligini o'rgatib boradi. Bu yo'lida u hamma metod va usullardan foydalanadi. Ba'zi bolalar yaxshi, muloyim gapga, erkalatish kabi so'zlarga, ba'zilari qattiqroq gapga, urish-tanbeh so'zlarga quloq soladi. O'qishga hamma bolani tengdek qiziqtirish uchun faqat yozdirish va o'qitishdan tashqari darsda o'yinlar, musobaqalar o'tkazish ham o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liqdir.

Tayanch iboralar: maktabgacha ta'lism, boshlang'ich ta'lism, baholash usuli, jazolash usuli, quyosh nuri metodi, rag'batlantirish usuli.

O'quvchilar maktabga bormaslaridan avval, ota-onasidan, so'ng maktabgacha ta'lism muassasalarida tarbiyalanadi. Maktabgacha ta'lism muassasalarining asosiy vazifasi bolalarni aqliy va jismoniy tamondan tarbiyalashdan iborat. Bu yerda ular to'g'ri gapirish, fikrlash, yangi muhitga moslashish, do'stlar orttirish, tarbiyachini hurmat qilish, aytgan vazifalarini bajarish kabilarni o'rganadi.

Maktabga birinchi marotaba kelgan, yangi muhitga, yangi insonlarga duch kelgan bolalar orasida maktabgacha ta'lism muassasalarida tarbiyalanmagan bolalar ham uchraydi. Bunday bolalar boshqalardan ajralib turadi, asosan, ular yangi muhitga uzoq vaqt davomida o'rganishadi va o'zlashtirish darajasi ham sekin kechadi. Boshqa bolalar oldin bunday muhitda tarbiyalanganligi, tajribasi bo'lganligi sababli boshqalar bilan tez do'stlashishadi va yozish, chizishni ham tez o'zlashtirib oladi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'zining nutq madaniyati, gapirish ohangi, kiyinish odoi, tartib-intizomligi, to'g'riso'zligi bilan bolalarda yaxshi taassurot qoldirishga harakat qilishi lozim. O'qituvchi o'quvchilariga odob-axloq qoidalari, to'g'riso'zlik haqida o'rgatar ekan, o'zi ham bu qoidalarga rioya etishi kerak. Agar u bolalarga rost gapiring deb, o'zi yolg'on gapirsa, maktabning ichki tartib-qoidalalariga rioya qiling deb, o'zi darsga kech va formasiz kelsa, bolalar ham ustozidan ko'rganini takrorlamasligiga kim kafolat beradi? O'qituvchi bolalarga o'rgatayotganlariga o'zi ham loyiq bo'lsa, unda bolalar ham u kabi tartibli va intizomli bo'lishga harakat qiladi.

Shu sababli ham boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan juda katta e'tibor, mas'uliyat talab etiladi.

Birinchi sinf o'quvchilariga yozish, chizishni o'rgatishda o'qituvchilardan katta sabr-toqat talab etiladi, chunki, maktabga har xil xulq-atvordagi bolalar keladi. Ularni tarbiyalash, bilim berishni noldan boshlab o'rgatish ham oson emas. Birinchi sinf o'quvchilariga alifboni o'rgatishda, asosan, rasmlardan foydalilanadi. Bu ularda harflarni yodda saqlab qolish qobiliyatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, barcha óquvchilarga o'tilgan har bir harfga bog'liq birma-bir misollar ayttirish ham samarali natija beradi.

Birinchi sinfda óqituvchi o'quvchilari haqida, ularning oilaviy sharoiti, xulq-atvori to'g'risida to'liq ma'lumotga ega bo'ladi va kimga qanaqa gapirish kerakligini ham dars jarayonida bilib oladi, ya'ni, ba'zi bolalar muloyim gapga, ba'zilari mutloqo teskari gapga tushunadi. Bolalarning bilim darajasi yuqori yoki past bo'lishi o'qituvchining dars rejasini to'g'ri tuzishi va qiziqarli metodlardan foydalana olishiga bog'liq. Agar o'quvchilarni birinchi sinfdan boshlab o'zining dars o'tish jarayoniga qiziqtira olsa va ularni darsga jalb etish qo'lidan kelsa, keyinchalik ular bilan ishlashish qiyinchilik tug'dirmaydi. Boshlang'ich sinf bolalarni uyga vazifalarini baholash jarayonida ularga juda past baho qo'yish ham ularning o'qishga degan qiziqishlarini susaytiradi, lekin bu degani ularga faqat 5 va 4 baho qo'yish kerak degani emas. Ba'zi paytlarda 3 bahosini ham qo'yib turish kerak sababi, o'quvchilar 4 va 5 baholarini olishga o'rganib qolsalar bu odatiy holat bo'lib qoladi va 3 olsa keyingi safar yaxshiroq tayyorlanib kelishga harakat qiladi. Ona tili va o'qish savodxonligi darsidan uyga vazifa biror matnni o'qib kelish topshirilgan bo'lsin deylik. O'quvchilarni ketma-ket o'qitish jarayonida ular orasida uyga vazifani tayyorlamaganlar ham uchrab turadi. Ular matnni sekin, so'zlarni qo'shib o'qishda qiynaladi. Bunday o'quvchilarni baholashdan oldin boshqa sinfdoshlaridan ularning fikri so'ralsa, har kim har xil baho aytadi, ba'zilari 3, ba'zilari 4, ba'zilari esa 5 deb baholaydi. Shunday paytlarda o'qituvchi uning darsga qatnashish darajasi oldin qanday ekanligiga qarab xulosa chiqaradi. Agar u yaxshi o'qiydigan o'quvchi bo'lsa, unga "bu safar u tayyorlana olmabdi, lekin keyingi darsga, albatta, tayyorlanib keladi, to'g'rimi?", - deb undan so'rab oladi va 4 bahosini qo'yib bersa, u keyinga darsga tayyorlanib 5 baho olishga harakat qiladi. Bu usul orqali boshqa bolalarning o'sha o'quvchiga nisbatan qanday munosabatda ekanligini bilib olishimiz mumkin.

Dars jarayonida o'quvchilar bilan har xil holatlar kuzatiladi va bu paytda o'qituvchining xato qilishi mumkin emas. Mobodo xato qilsa, men xato qildim, adashdim demasdan, shu vaziyatdan silliq, xatosini sezdirmasdan chiqib ketishi kerak. Masalan, matematika darsida $17+15=33$ deb yozib ketdi deylik. O'quvchilar orasida ba'zilari xato ekanligini sezmay qolgan bo'lishi mumkin, lekin, ba'zilari buni payqaydi va aytadi. Bu holatda o'qituvchi "ha" adashibman deb to'g'rilib qo'yishi mumkin

emas, sababi boshlang'ich sinf o'quvchilarida bilmasdan bo'ldi degan tushuncha yo'q. Ularda ustoz yaxshi bilmaydi degan fikr miyalariga joylashib qoladi va bo'lgan holatni uyidagilarga aytib boradi. Bu ota-onalarida ham noto'g'ri taassurat qoldirishi mumkin. Shu boisdan, o'qituvchining xatosini o'quvchisi topganda, "ha sen to'g'ri topding, men sizlarning bilimlaringizni tekshirish uchun ataylab xato yozgandim, kim darsda e'tiborli yoki e'tiborsiz o'tirganini bilmoqchi edim"- deb vaziyatdan chiqib ketsa, birinchidan o'z xatosini to'g'rilib oladi, ikkinchidan boshqa bolalar ham sergaklashib e'tiborli yozishga harakat qiladi.

O'qituvchilar darsga tayyorlanmagan yoki haddan tashqari quloqsiz bolalar uchun jazolash metodidan foydalanadi. Bunday bolalarni jazolash uchun ularga tanbeh berishi, turg'izib qo'yishi, boshqa o'quvchilar oldida obro'sini to'kish holatlari juda ko'p uchrab turadi. Lekin, ba'zi o'qituvchilar orasida bolalarnining qo'liga chizg'ich bilan urish, orqasiga urish, qo'lidan qattiq ushlab silkish, boshiga urish kabi jazolash usullaridan foydalanadiganlar ham uchraydi. Buning oqibatida boshlang'ich sinf o'quvchilarining tana a'zolariga shikast yetishi, miyasi chayqalishi mumkin. Ular biror fanni o'zları qiziqqanidan emas, balki, ustozlaridan qo'rqqanidan tayyorlaydilar. Baribir ham o'zları qiziqmasdan, tushunmay darsga qatnashganlari bilan ular oz vaqt ichida yodlaganlarini unutib qoladi. Bu kabi qattiq jazolash o'miga bolalarning nima sababdan darsga tayyor emasligini so'rash, tushunmagan bo'lsa qayta tushuntirishi, yonidagi do'stlarining ham yordam berishini so'rashi maqsadga muvofiqdir.

Bolalarni aqliy tomondan o'ylash qobiliyatini, yakka fikrini rivojlantirish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Buning uchun "Quyosh nuri" metodidan foydalanish samarali natija beradi. Bu metoda o'qituvchi plakatga quyoshning rasmini chizadi va nurlarini 2-3 donadan o'quvchilarning qo'liga beradi. Quyoshning o'rtasiga mavzu yozib qo'yiladi. Masalan, "Navbatchi" va shu kabi darsga bog'liq mavzular. Quyosh nur sochib turishi uchun unga nurlarni yopishtirish kerak. Lekin, bu nurlarni yopishtirishdan oldin, o'quvchilar mavzuga aloqador so'zlarni ya'ni navbatchining vazifasi nimalardan iborat ekanligini yozishlari, so'ngra quyoshni nurlari bilan to'ldirishlari mumkin. Masalan, bu nurlarga sinfga hammadan oldin kelish, partalarni tekislab qo'yish, stol-stullarning changini olish, doskani artish, gullarga suv quyish va shu kabi o'z fikrlarini yozadi. Bu ularning fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi, teranroq o'yashga va to'g'ri yozishga undaydi. Bu metod orqali bolalar bilan yakka turda yoki guruh bo'lib ishlashimiz mumkin bo'ladi.

Sinf rahbari o'quvchilar orasida darsga yaxshi tayyorlangan, hamma fanlardan a'lo bahoga o'qiydigan bolalarda rag'batlantirish usulidan foydalanadi, ya'ni ularning daftarlari stiker yopishtirish, baholash kartalarini berish yoki hafta so'ngida eng yaxshi baho olgan o'quvchilarga sovg'alar berish ham o'quvchilarning darsga qiziqishini orttiradi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni tarbiyalash va bilim berishda o'qituvchilarning egallagan o'rni juda katta ahamiyatga ega. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov: "Ta'lismi tarbiyadan, tarbiyani ta'limdan ajratib bo'lmaydi", - degan edilar. Ta'lismi va tarbiya ikkalasi qushning ikki qanoti kabidir. Agar qushning bir qanoti yo'q bo'lsa, u ucha olmaydi. Insonlarda ta'lismi yoki tarbiyaning biri yo'q bo'lsa, ular shu bir qanoti yo'q qush kabidir. Shu boisdan, o'qituvchilar o'quvchilarga ta'lismi ham, tarbiyani ham tengdek berib borishlari kerak. Bu yo'lida ulardan katta sabr-toqat, pedagogik mahorat talab etiladi.